FUNKTSIONAL PARADIGMA VA ZAMONAVIY O´ZBEK TILSHUNOSLIGI

Sanjar Islomov
Germaniyaning Münster universiteti Nemis filologiyasi ixtisosligi doktoranti.
E-mail: islomov@uni-muenster.de
ORCID ID: 0000-0002-1746-9046

ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy o‘zbek tilshunosligida kuzatilayotgan funktsional paradigma va uning falsafiy asosi bo‘lgan konstruktivizm bilish nazariyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda bilishning asosiy manbalari empirizm, ratsionalizm va transtsendental sintez hamda ularning zamonaviy epistemologik oqimlar pozitivizm, mantiqiy pozitivizm, tanqidiy ratsionalizm va konstruktivizmning ilmiy bilishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Funktsional paradigma tilni faqat tizim sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy muloqot jarayonidagi vosita sifatida o‘rganishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan, o´zbek va rus tilshunosligida ko´p uchraydigan antropotsentrik paradigma hamda funktsional paradigmalarning kesishgan nuqtalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: funktsional paradigma, konstruktivizm, pozitivizm, tanqidiy ratsionalizm, antroposentrizm, kommunikativ-pragmatik burilish, o‘zbek tilshunosligi, langue, parole, til, nutq, muloqot.

ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ПАРАДИГМА И СОВРЕМЕННОЕ УЗБЕКСКОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Аннотация

В статье анализируются функциональная парадигма, наблюдаемая в современной узбекской лингвистике, и её философская основа, эпистемология конструктивизма. В исследовании рассматриваются основные источники познания такие как эмпиризм, рационализм и трансцендентальный синтез, а также их место в научном познании в современных эпистемологических направлений как позитивизма, логического позитивизма, критического рационализма и конструктивизма. Функциональная парадигма выделяется тем, что направлена на изучение языка не только как системы, но и как средства социально-культурной коммуникации. В этом контексте освещаются точки пересечения

антропоцентрической, часто встречающихся в узбекском и русском языкознании и функциональной парадигм.

Ключевые слова: функциональная парадигма, конструктивизм, позитивизм, критический рационализм, антропоцентризм, коммуникативно-прагматический поворот, узбекское языкознание, langue, parole, язык, речь, коммуникация.

FUNCTIONAL PARADIGM AND MODERN UZBEK LINGUISTICS

ABSTRACT

The article explores the rise of the functional paradigm in modern Uzbek linguistics, grounded in the epistemological framework of constructivism. The study examines the philosophical foundations of knowledge like empiricism, rationalism, and the transcendental synthesis and highlights their role in scientific knowledge in contemporary epistemological trends such as positivism, logical positivism, critical rationalism, and constructivism. The functional paradigm stands out by focusing on the study of language not only as a system but also as a means in the process of socio-cultural communication. In this context, the intersections between the anthropocentric paradigm, frequently encountered in Uzbek and Russian linguistics, and functional paradigms are also highlighted.

Keywords: functional paradigm, constructivism, positivism, critical rationalism, anthropocentrism, communicative-pragmatic shift, Uzbek linguistics, langue, parole, language, speech, communication.

KIRISH

XXI asrga kelib dunyo tilshunosligida kuzatilayotgan funktsional paradigma hamda uning zamirida yotuvchi falsafaning konstruktivizm bilish nazariyasi asta-sekinlik bilan zamonaviy o´zbek tilshunosligida ham mustahkam o´rin olayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu rivojlanish tendentsiyalari ortidan funktsional paradigma shu paytgacha tilshunoslikda ustuvor hisoblanuvchi strukturalizm hamda formal-struktural paradigmaga jiddiy raqobatchiga aylanib ulgurganligini qayd etish lozim. Tilshunoslik sohasidagi mazkur global hamda milliy miqyosdagi ilmiy paradigmalar o´zgarishi butun ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasini ham qamrab olgan bo´lib ushbu paradigmatik burilishning bir qancha sabablari mavjud. Dastlab ilmiy bilishning falsafiy asoslari va zamonaviy epistemologik yo‘nalishlar yohud bilish nazariyalari haqida.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy bilishda falsafasining markaziy savollaridan biri bu biz bilimga qanday qilib erishamiz degan masaladir. Diaxron

rivojlanish davomida bu savolga falsafada ikki asosiy yo‘nalish orqali javob berilgan bo´lib, birinchisi „ratsionalizm” yoki “idealism”, ya´ni aqlga, mafkuraga tayanish orqali va ikkinchisi “empirizm” yoki “realism”, ya´ni tajribaga tayanish orqali (Audi 2011). Keyinchalik nemis faylasufi Immanuel Kant (1998) bu ikki azaliy antagonistik pozitsiyalarni „transsendental sintez“ orqali uyg’unlashtirishga muvaffaq bo´lgan. Kant fikricha tajriba bilimning mazmunini bersa, aql uning shaklini belgilaydi. Bilimni yoki idrokni qanday hosil qilishimiz yoki bilish manbalarini quyidagi misollar bilan tushuntirish mumkin:

a. Quyosh sharqdan chiqadi.
b. 9 ni 11 ga ko‘paytirsak 99 bo‘ladi.
c. Xudo dunyoni 7 kunda yaratgan.

„a” misolda keltirilgan bilim sezgi orqali, ya´ni ko‘rish, eshitish, hid bilish va hokazo yo‘llar bilan yoki kuzatuv va tajriba orqali olinadi. Bu empirik bilim bo‘lib, har doim ham mutlaq emas. Mazkur tajriba natijasida hosil bo‘lgan bilimni Kant “a posteriori”, ya´ni tajribadan keyingi bilim deya ta´riflaydi.

„b“ misoldagi bilim esa kognitiv, ya’ni aql va tafakkur orqali olinadi. Bilim mantiqiy xulosa chiqarish yordamida hosil qilinadi va kengaytiriladi. Bunday bilim sezgi yoki tajribadan avval ham mavjud bilim bo´lib, Kant bu turdagi bilimni “a priori”, ya´ni tajribadan oldin ham olish mumkin bo´lgan bilim deya ta´riflaydi.

„c” misolda keltirilgan bilim esa na tajribadan, na tafakkurdan kelib chiqadi. U muqaddas diniy manbalar orqali bildirilgan haqiqat. Dinga ishonuvchi ko‘pgina kishilar uchun haqiqiy bilish manbai hisoblansada, ilmiy nuqtai nazardan u bilish manbasi sifatida qabul qilinmaydi.

Bilish manbalari borasidagi mazkur asosiy falsafiy dunyoqarashlar keyinchalik ilmiy epistemologiya yohud bilish nazariyalarining turli shakllari, pozitivizm, kritik ratsionalizm va konstruktivizmda, turlicha metodologik asoslarda namoyon bo‘lgan.
“Pozitivizm” va “mantiqiy pozitivizm” bu empirik realizmning ilmiy shaklidir. XIX asrda Auguste Comte (Brock 2015) tomonidan asos solingan pozitivizm ilmiy bilishning yagona manbai sifatida tajriba va kuzatishni e’tirof etadi. Bu yondashuvning falsafiy asosini empirizm va realism tashkil qiladi. Haqiqat yoki reallik inson ongi va g‘oyasidan mustaqil mavjud, bilim esa faqat tajribaviy tekshiruv orqali hosil bo‘ladi. Pozitivizmning metodologiyasi induktiv, ya´ni xususiylikdan umumiylikka, yondashuvga asoslanadi. Alohida, ayrim xususiy faktlardan umumiy qonuniyatlarga o‘tish orqali bilim shakllanadi. Misol uchun fizikadagi qonunlar ko‘plab tajribalar natijasida umumlashtirilgani kabi. XX asr boshlarida Vena maktabi vakillari, ayniqsa Rudolf Carnap (Carnap 1971) ushbu oqimni mantiqiy pozitivizm shaklida rivojlantirdilar. Ular „verifikatsiya“ printsipini ilgari surdilar, ya´ni ilmiy bayonot tajribaviy tekshirish

bilan birga mantiqiy tahlil orqali ham “haqiqiy” deb tan olinishi mumkin. Shu bilan birga, ular mantiqiy tahlilni deduktiv, ya´ni umumiylikdan xususiylikka, vosita sifatida induktiv tajriba bilan birlashtirdilar.

Biroq mantiqiy pozitivizmning zaif tomoni to‘liq verifikatsiyaning amalda deyarli imkonsizligi keyinchalik tanqidiy ratsionalizm paydo bo´lishiga yo‘l ochdi. “Kritik ratsionalizm” bu ilmiy bilishning deduktiv konseptsiyasidir. Karl Popper (2013) mantiqiy pozitivizmni tanqid qilib, tanqidiy ratsionalizmni ishlab chiqdi. Unga ko‘ra, ilmiy bilim hech qachon mutlaq verifikatsiya qilina olmaydi, balki faqatgina „falsifikatsiya“ orqali sinovdan o‘tadi. Buni Popper o´zining mashhur oqqushlar misoli bilan bayon etib beradi. Tadqiqotchi o´zining empirik kuzatuvlari natijasida „barcha oqqushlar oq bo´ladi“ degan ilmiy xulosaga keladi. Ammo tadqiqotchi ushbu gipotezani mutlaq verifikatsiya qilishi ushun bir vaqtning o´zida dunyoda mavjud barcha oqqushlar rangini empirik va induktiv kuzatish orqali aniqlab chiqish imkoniga ega emas va bu bilan Popper induktiv yondashuvning normativ umumiylashtirsh borasidagi kamchiliklarini ham ochib beradi. Buning o´rniga tadqiqotchilar, Popper fikricha, qo´yilgan farazlarni falsifikatsiya qilishga harakat qilishlari lozim, ya´ni birgina qora oqqushning topilishi yuqoridagi farazning falsifikatsiya qilinishiga olib keladi. Popper fikricha tadqiqotchi barcha oqqushlarni induktiv kuzatishdan ko´ra, birgina qora oqqushni deduktiv topishga harakat qilmog´i lozim. Kritik ratsionalizmning falsafiy asosi ratsionalizm va qisman idealizmdir. Bilim aqlning nazariy konstruksiyasi sifatida ilgari suriladi, ammo tajriba uni sinovdan o‘tkazadi. Metodologik jihatdan bu yondashuv deduktivdir. Tadqiqotchi gipoteza yoki nazariyani ilgari suradi, bunda nazariya yoki gipotezlar deduktsiya yo‘li bilan keltirib chiqariladi hamda tajriba orqali mazkur natijalar sinovdan o’tkaziladi, ya´ni vefikatsiya yoki falsifikatsiya qilinadi. Agar u noto‘g‘ri chiqsa, nazariya rad etiladi va boshqa gipoteza qo´yiladi hamda yuqoridagi jarayon davom etadi. Shunday qilib qaysidir nazariya yoki gipoteza to u falsikatsiya qilinmaguniga qadar amalda bo´ladi. Popper ilm-fan rivojini “xatolar orqali o‘sish” sifatida talqin qiladi. Bilim mutlaq emas, balki doimiy tekshiruv va tuzatish jarayonidir. Shu bois, tanqidiy ratsionalizm Kantning transsendental yondashuviga yaqin hisoblanadi.

Konstruktivizm yoki bilimning ijtimoiy va madaniy tabiati. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab „konstruktivizm“ (Piaget 2019, von Glasersfeld 1996, Berger & Luckmann 1979) bilish jarayonini sub’ektiv va ijtimoiy faoliyat sifatida talqin qila boshlaydi. Bu oqimga ko‘ra, haqiqat inson ongidan mustaqil mavjud “obyektiv reallik” emas, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlarda konstruktsiya qilinadigan tizimdir. Falsafiy jihatdan konstruktivizm idealizm bilan bog‘liq bo´lib haqiqat ong mahsuli sifatida tushuniladi. Ammo konstruktivizm shuningdek empirizm elementlarini ham

o‘z ichiga oladi. Bilim inson tajribasining faol qayta ishlanishi orqali shakllanadi. Shu bois, bu yondashuvni sub’ektiv realizm yoki ijtimoiy epistemologiya sifatida ham talqin qilish mumkin. Metodologik jihatdan konstruktivizm induktiv va deduktiv yo‘nalishlarni birlashtiradi. Tadqiqotchi induktiv kuzatuv va tajriba asosida nazariy model yaratadi, keyin uni deduktiv tarzda tahlil qiladi va ijtimoiy kontekstda qayta talqin etadi.

Funktsional paradigma. Falsafaning konstruktivizm bilish nazariyasiga asoslanuvchi funktsional paradigmaning Tilshunoslikda mustahkam o´rin egallashiga sabab bo‘lgan muxim omillardan biri bu 1970-yillardan boshlab xalqaro miqyosda butun ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida yuz bergan (kommunikativ) pragmatik burilishdir (pragmatic shift). Ushbu burilishning asosiy mohiyati oldingi tizimga asoslangan tilshunoslikdan, ya’ni tilning ichki tuzilishini markazga qo‘ygan yondashuvdan uzoqlashib, muloqotga yo‘naltirilgan tilshunoslik konsepsiyasiga o‘tishdir. Bunda til endi faqat grammatik tizim sifatida emas, balki insonlar o‘rtasidagi ma’no almashinuvi va madaniy interaktsiya vositasi sifatida talqin qilinadi (Helbig 1988).

Funktsional paradigmaga asoslangan tilshunoslikda avvalgi formal-strukturaviy yondashuvdan farqli ravishda tilning faqat ichki tizimi (sintaksis va semantika) emas, balki uning ijtimoiy va kommunikativ funktsiyalarini ham o‘rganishga e’tibor qaratiladi. De Sossyur va Chomsky kabi olimlar tahlillarini ko‘proq „langue“ yoxud „competence“ ya’ni til tizimi bilan chegaralagan bo‘lsalar, funktsional paradigma „parole“ yohud „performance“, ya’ni tilning real muloqotdagi qo‘llanishini ham o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv tilni abstrakt tizim sifatida emas, insonlararo muloqot vositasi sifatida ko‘rishga olib keldi. Natijada til belgilarining ma’nosi ularning tizimdagi o‘rnidan emas, balki kommunikativ maqsad va kontekst bilan bog‘liq holda talqin qilina boshlandi. Kommunikativ-pragmatik burilish natijasida matn lingvistikasi, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, korpus va kompyuter lingvistikasi kabi yangi fan yo‘nalishlari shakllandi (Helbig 1988; Islomov 2024a).

Quyida (Katinas 2010; Helbig 1988, 13-18, Islomov 2024, 96-97) kommunikativ-pragmatik burilish yohud funktsional paradigmaning asosiy xususiyatlari tilshunoslikda shu paytgacha amalda bo´lgan formal-struktural paradigma bilan qiyosiy keltirib o´tiladi:

„Formal-struktural paradigma“	„Funktsional paradigma“

Langue – til strukturalari va tizimlari	Parole – til strukturalarining konkret vaziyatlarda ishlatilishi
Til tizim sifatida	Til shunchaki tizim emas, undan kattaroq va ko´proq
Tizimga asoslangan va tizimga yo´naltirilgan lingvistika	Muloqotga asoslangan va yo´naltirilgan lingvistika
Tushunish analitik jarayon	Tushunish konstruktiv jarayon
Tadqiqot qiziqishi – sintaktik, semantik aspektlar, tilning ichki qurilishi va tizimlari	Tadqiqot qiziqishi – semantik aspektlar, kognitiv strukturalar, ijtimoiy muloqotning murakkab tuzilmasida tilning funktsiyasi
Alohida gaplar, jumlalarning tahlili	Diskurslar, vaziyatlar, muloqotlar aloqalarining tahlili. Idrok etilgan jumla va shaxsning individual dunyoviy bilimlari asosida ma´no strukturasi shakllantiriladi. Mazkur ma´no strukturasida mental jihatdan aytilgan jumladan tashqariga chiquvchi faktlar ham ifodalanadi. Boshqacharoq aytganda aytilgandan ko´ra ko´proq narsa tushuniladi
Tilning ichki jarayonlarini tadqiq qilish	Gapirish, yozish, o´qish va tinglash jarayonlarida lisoniy va kognitiv jarayonlar tahlil qilinadi va modellashtiriladi
Klassik fanlar	Defisli lingvistikalar

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ayniqsa so´nggi yillarda tobora ko´proq uchrayotgan lingvokulturologik tadqiqotlar, amaliy lingvistika, amaliy tilshunoslik, funktsional tilshunoslik, korpus lingvistikasi, diskurs tahlili, pragmalingvistika, sotsiolingvistika va boshqa zamonaviy tadqiqotlar yoki tilshunoslikda yangicha metodologik-uslubiy yondashuvlarga bo´layotgan urinishlar (Islomov 2024b, 2022) funktsional paradigma zamonaviy o´zbek tilshunosligida allaqachon o´zining mustahkam o´rniga ega bo´lganligini bildiradi. Bunga yaqqol misol tariqasida istalgan jurnal yoki maqolalar to´plamiga yoki ayniqsa lingvokulturologik tadqiqotlarga ko´z tashlash kifoya. E´tiborga molik jihati, garchi o´zbek va rus tilshunosligida lingvokulturologiyaning nazariy asosi sifatida va

umuman zamonaviy tilshunoslikning asosi sifatida „antropotsentrik paradigma“ ko´rilsada (Usmanova 2019, 12-13), mazkur ilmiy paradigma faqatgina rus va o´zbek ilmiy adabiyotlardagina uchrab, anglosakson ilmiy adabiyotlarida ushbu paradigma deyarli uchramasligi yoki uchragan tarzda ham ilmiy jamoatchilik tomonidan e´tirof etilmasligini (Islomov 2024a) ko´rish mumkin. Ammo antropotsentrik ilmiy paradigma bo´yicha tegishli adabiyotlar ko´zdan kechirilganda, aslida antropotsentrik paradigmada ham xuddi funktsional paradigmada bo´lgani kabi fanning asosiy qiziqishi formal-struktural yondashuvdan funktsional-pragmatik yondashuvga o´tganligini ko´rish mumkin. Rus tilshunos olimi Dorofeev (2008)ning ta'kidlashicha, XXI asr boshlariga kelib tilshunoslik fanida butun nazariy asos va konseptual qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etuvchi antropotsentrik ilmiy paradigma tilni o‘rganishda inson omilining markaziy o‘ringa qo´yadi. Dorofeevning fikricha, bu jarayonning asosiy sababi tilshunoslarning ilmiy e'tibori “til qanday qurilgan?” degan yondashuvdan “til qanday ishlatiladi?” degan yondashuvga ko´chishi bilan bog‘liqdir (Dorofeev, 2008, 302). Shu ma´noda mazkur ikki ilmiy paradigmalarning markaziy ilmiy tadqiqot qiziqishi aynan bir kesishmada joylashgan bo´lib, ta´bir joiz bo´lsa ushbu ikki paradigmalarni bir-biriga o´xshash paradigmalarning turli ilmiy jamiyatlardagi ikki xil nomlanishi deya e´tirof etish mumkin. Ammo insoniyat tomonidan amalga oshiriluvchi har qanday faoliyat eng avvalo va so´zsiz insonlarga qaratilganligi hisobga olinsa ilmiy paradigmaning aynan „antropotsentrik“ deya nomlanishi bir qarashda tushunmovchilik keltirib chiqarishi aniq. Shundan kelib chiqib mazkur paradigmaning „antropotsentrik“ deb nomlanishini tilshunoslik termini bilan “pleonasm” xodisasiga misol sifatida keltirish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda albatta qaysidir soha doirasida bitta yoki bir nechta paradigmalar bir-biriga qarshi bo´lmagan holda, parallel yoki avtonom ravishda bir-birini to´ldirib kelishi (Usmanova 2019, 12-13) tabiiy bo´lib, paradigmalar xilma-xilligi pirovard natijada O´zbek tilining yanada mukammalroq o´rganishiga, tadqiq qilinishiga olib kelinishi aniq. Introspektsiya yoki ichki kuzatishga va deduktsiyaga asoslangan formal-struktural paradigma o´z imkoniyatlari chegarasiga yetgani xolida, qiyosiy-tarixiy yoki funktsional paradigmalar asosidagi yondashuvlar yangi va istiqbolli tadqiqot sohalariga turtki berib ayrim fan yoki butun fan sohalari doirasida sinergetika effektini hosil qilishi shubhadan xoli. Zero til nazariyasi bo´yicha amalga oshirilgan har bir tadqiqot o´z navbatida o´zbek tilining nazariy va akademik jihatdan o´rganilganlik holatini mukammalshtirish bilan birga, bu sohadagi hali tadqiq qilinmagan til aspektlarni yana

bittaga kamayishidan ham darak beradi. Shundan kelib chiqqan holda ushbu holat qaysidir ma´noda tilshunoslikda hamda til nazariyasi sohasida tobora kamayib borayotgan tadqiqot ob´yektlari hisobiga formal-struktural yondashuvning imkoniyatlari cheklanib borayotganligini ham bildiradi. Birgina misol tariqasida Y.Ro´ziyevning (2023) qiyosiy-tarixiy hamda funktsional paradigmalarga asoslangan noqardosh tillardagi o´zlashtirmalikning tadqiqoti hamda buning natijasidagi an´anaviy formal-struktural paradigmaga asoslangan o´zbek tili tadqiqoti uchun normativ hosilalarini hamda buning natijasida til nazariyasi sohasida vujudga kelgan bu boradagi yangi tadqiqot g´oyalarini keltirib o´tish kifoya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Audi, R. (2011). *Epistemology.* 3. ed. New York: Routledge. https://digitale-objekte.hbz-nrw.de/storage/2012/12/06/file_46/4831122.pdf.
2. Berger, P., Luckmann T. (1979). *The Social Construction of Reality*. Harmondsworth: Penguin.
3. Brock, D., Junge, M., Krähnke, U. (eds.) (2015). *Soziologische Theorien von Auguste Comte bis Talcott Parsons: Einführung*. 3. ed. Germany: De Gruyter. doi:10.1524/9783486717617.
4. Carnap, R. (1971). *The Logical Syntax of Language.* London: Routledge & Kegan Paul.
5. Dorofeev, Y. (2008). Antropotsentrizm v lingvistike i predmet kognitivnoy grammatiki. In: Aktualnыe problemы sovremennoy kognitivnoy lingvistiki: mat. XV Mejdunar. Lingvisticheskoy konf. „Yazыk i mir“, pod redaktsiyey Yuriya Vladimirovicha Dorofeeva, Pp. 302-308. Kiev: Tavricheskiy natsionalыy un-t im. V.I. Vernadskogo.
6. Helbig, G. (1988). *Entwicklung der Sprachwissenschaft seit 1970.* 2., unveränd. Aufl. Leipzig: Bibliograph. Inst.
7. Islomov, S. (2024a). Linguoculturology in National and Anglo-Saxon scientific contexts. *Uzbekistan: Language and Culture*, 2(2), 83-105.
8. Islomov, S. (2024b). Og´zaki suhbatlar va muloqotlarning lingvistik tadqiqi va tahlili. Raximov X. va boshqalar (eds.): *Zamonaviy filologiya va lingvodidaktikaning dolzarb masalalari* mavzusida CHDPUda o´tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari, Toshkent: Zebo Print MCHJ, 185-195.
9. Islomov, S. (2022). Etnometodologik muloqot tahlili – lingvistik tadqiqot metodi sifatida. Kholiyarov U. va boshqalar (eds.): *Ta´lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda xorijiy tillarni o´qitishdan samarali foydalanish masalalari* mavzusida

TerDUda o´tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari, Termiz: TerDU nashriyot matbaa markazi, 210-216.
10. Kant, I. (1998). *Kritik der reinen Vernunft.* Timmermann, J., Klemme, H. (eds.). Hamburg: Meiner.
11. Katinas, D. (2010). *Psycholinguistik. Einführung.* Vilnius University. http://web.vu.lt/flf/d.katinas/files/2010/09/Psycholinguistik_-_Einfuehrung-2016.pdf, Murojaat sanasi: 08.10.2025.
12. Piaget, J. (2019). *Genetic Epistemology*. New York, NY: Columbia University Press. doi:10.7312/piag91272.
13. Popper, K. (2013). *Logik der Forschung.* Keuth, H. (Hrsg.). 4., Bearbeitete Auflage. Berlin: Akademie Verlag. doi:10.1524/9783050063782.
14. Ro´ziyev Y. (2023). *Noqardosh tillarda o´zlashtirmalik va uning funktsional-semantik xususiyati*. Buxoro: Durdona nashriyoti.
15. Usmanova, S. (2019). *Lingvokulturologiya. Darslik.* Toshkent: Universitet.
16. von Glasersfeld, E. (1996). *Radical Constructivism. A Way of Knowing and Learning*. 16th edt. London: Falmer Press.